

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrası

**“PARRANDA KASALLIKLARI”
FANIDAN**

**“INFEKSION LARINGOTRAXEIT KASALLIGI”
mavzusi bo‘yicha o‘tkaziladigan ochiq ma‘ruza dars uchun**

USLUBIY ISHLANMA

**Nasimov Shuxrat Naimovich
Dotsent, veterinariya fanlari nomzodi**



SAMARQAND – 2024

Tuzuvchi:

Nasimov SH.N. – “Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrası dotsenti, v.f.n.

Taqrizchilar:

Xo‘jamshukurov A.N. – SamDVMCHBU “Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar” kafedrası mudiri, v.f.n.

Navruzov N.I. – VITI, Mikrobiologiya laboratoriyasi mudiri, v.f.f.d.

Parrandalarning infeksiyon laringotraxeit kasalligi - ma'ruza darsining o'qitish texnologiyasi.

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni:73</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Axborot – vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	1. ILT kasalligi tavsifi; 2. Qo'zg'atuvchisi, Epizootologiyasi 3.Diagnostikasi, profilaktikasi va qarshi kurash chora tadbirlari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Parrandalarning infeksiyon laringotraxeit kasalligi qo'zg'atuvchisi, o'ziga xos klinik belgilar bilan tanishtirish. Kasallikning profilaktikasi haqida tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Infeksiyon laringotraxeit kasalligi to'g'risida ma'lumotlarni berish; ma'ruza jarayonini tashkillashtirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba:</i> Infeksiyon laringotraxeit kasalligining diagnostikasi, profilaktikasi va qarshi kurash chora tadbirlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Ma'ruza, «aqliy hujum», namoyish etish
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, proektor, slaydlar, plakatlar, ho'l, quruq va tarqatma materiallar hamda doska va bo'r.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruxlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javob, nazorat savollari

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>Talabalarning</i>
I. Mavzuga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<p>1.1. O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risidagi 08.02.2022-yildagi PQ-120-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.</p> <p>1.2.Mazkur fan bo'yicha o'rganiladigan mavzuni e'lon qiladi, maqsadi va kutilajak o'quv natijalarini e'lon qiladi. Adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi va izoxlaydi (slayd).</p> <p>1.3.«Aqliy hujum» metodini qo'llab, mavzu bo'yicha tanish tushunchalarni aytishlarini taklif qiladi. Barcha takliflarni doskaga yozib boradi.</p> <p>1.4. Ushbu ishni o'quv mashg'ulotining yakunida oxiriga etkazishlarini aytadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Tinglaydilar va yozib oladilar</p> <p>O'z fikrlarini bildiradilar.</p>
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	<p>2.1.Mavzu bo'yicha ma'ruza matnlarini tarqatadi: mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishib chiqishni taklif qiladi.</p> <p>2.2.Namoyish qilish va izoxlash yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi. Mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi. Talabalarning e'tiborini asosiy tushunchalarga va ahamiyatli tomonlariga jalb qiladi.</p>	<p>Tinglaydilar va har bir tayanch ibora va atamani muxokama qiladilar, daftarlariga yozib oladilar</p>
III. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladilar. Faoliyat natijalarini izoxlaydi. Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlar kelajakda qayerlarda qo'llanilishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.</p> <p>3.2.Talabalar faoliyatini va belgilangan o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini taxlil qiladi va baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: nazorat savollariga og'zaki javob berish.</p>	<p>Savollar beradilar va vazifani yozib oladilar</p>

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N. Parrandalar kasalliklari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2018 yil.
2. Salimov X.S., Qambarov A. Epizootologiya. Darslik. Toshkent, 2016 yil.
3. Bakirov B.B. Ichki yuqumsiz kasalliklar. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2015 yil.
4. G'afurov A.G'., Davlatov R.B., Rasulov O'.R. Veterinariya protozoologiyasi. O'quv qo'llanma. "Zarafshon" nashriyoti, Samarqand, 2013 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Бакулин В.А. Болезни птиц. Учебник. Санкт-Петербург, 2006 год.
2. Бессаробов Б.Ф. и др. "Болезни птиц", Учебное пособие. Москва, Издательство, "Лан" 2007 год
3. Бондаренко С.П. Разведение и выращивание страусов. Учебное пособие. Донецк – 2003 год.
4. Бессарабов Б.Ф. и др. Иллюстрированный Атлас болезней птиц. Москва-2015г.
5. Давлатов Р.Б., Насимов Ш.Н. Методическое пособие для выполнения лабораторно-практических занятий по предмету Болезни птиц. Самарканд-2018.
6. Салимов Х.С., Камбаров А.А. ва бошқалар. "Эпизоотология. Дарслик. Тошкент- 2016. 303 бет.

1. O'quv uslubiy majmua – O'UM SamDVMCHBU kutubxonasi fondida
2. www.ziyo.net.uz
3. www.natlib.uz
4. <http://nuu.uz>
5. <http://zoohistory.ru>
6. <http://www.yebio.ru>
7. <http://www.seaworld.org/animal>
8. <http://www.zin.ru>

PARRANDALARNING INFEKSION LARINGOTRAXEITI

Parrandalarning infeksiyon laringotraxeiti – Laringotracheitis infectiosa avium. Sinonimi - traxeolaringit.



Infeksiyon laringotraxeit (ILT) – parrandalarning yuqumli virusli kasalligi bo‘lib, tovuq, kurka va qirg‘ovullarda yuqori nafas yo‘llari va ko‘z shilliq qavatining zararlanishi bilan tavsiflanadi. Qo‘zg‘atuvchisi – herpes viruslari (Herpesviridae) oilasiga mansub, Alphaherpesviridae kenja oilasiga mansub DNK tutuvchi virus.

1. Infeksiyon laringotraxeitning konyunktival xili.

Infeksiyon laringotraxeit (lot.- Laryngotracheitis) – parrandalarning kontagioz infeksiyon virus kasalligi bo‘lib, kataral va fibrinli-gemorragik rinit, traxeit, kon’yunktivit va bug‘ilish hodisasini kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Infeksiyon laringotraxeit birinchi marta AQSH da Mey va Titsler (1925) tomonidan qayd qilingan. Ammo, uni infeksiyon bronxitdan aniq farqlamagan. 1930 yilda Bigs va boshqalar ushbu kasalliklarni 2 ta mustaqil kasallik ekanini isbotlagan. Infeksiyon laringotraxeitni YAngi Zelandiyada R.G.Vebster (1959), Polshada K. Marek (1948) va Bolgariyada S.T.Jekovlar (1961) mukammal o‘rganishgan.

Sobiq Ittifoqda birinchi bo‘lib G.A.Dejava (1963) laringotraxeit kasalligiga diagnoz qo‘yish uchun diffuzli pretsipitatsiya reaksiyasini, V.N.Syurin, M.A.Shestochenko, Z.YA.Chistova (1964), B.K.Qo‘chqorov (1970) laringotraxeit kasalligiga ekspress diagnoz qo‘yish uchun nurlanuvchi antitelolar usulini qo‘llaganlar. Bu usul nihoyatda yuqori spetsifik ekspress usullar qatoriga kiradi.

Qo‘zg‘atuvchisi va uning chidamliligi. Virion o‘lchami 45-110 nm. Virion asosan 3 ta komponentdan: nukleoid, kapsomerli kapsid va qobiqdan iborat. Virus 7-9 kunlik tovuq embrionining xorioallantois qobig‘ida va birlamchi va qayta-qayta cheksiz o‘sovchi hujayralar kulturasida SPT ko‘rsatib ko‘payadi. Virus 3-4 kunda sitopatik ta’sir ko‘rsatadi.

Virusning tashqi muhit ta’sirlariga chidamliligi uncha yuqori emas. O‘yuvchi natriy, krezol, xlorli ohak, formalin va kreolin aralashmasining (3:1) 1m³ xona havosidagi 15 ml miqdori virusni tez faolsizlantiradi.

Virus fosfat buferida tayyorlangan 50% li glitserinli kekirdak ekssudatida 37°S haroratda 7-14 kungacha o‘z virulentligini saqlaydi. Parranda turgan binoda parrandalar bo‘lmasa virus 6-9 kunda faolsizlanadi, suvda 1 kecha-kunduz faol saqlanadi. O‘lgan

parranda jasadida 30 kun, u 1m tuproqqa ko'milganda 47 kun, virus bilan sun'iy ifloslantirilgan pat, par va donli ozuqada 154 kungacha o'z faolligini saqlaydi. Inkubatoriya shkaflarida 4 kun faol saqlanadi.

Epizootologik ma'lumotlar.

Kasallikka tovuq, tustovuq, kurka, sesarka moyil. Parrandalardan o'rdaklar, chumchuqlar, kabutarlar, bedanalar, zog'chalar va qarg'alar bu kasallikka moyil emas. Virus saqlovchi material tovuqlarning kloaka, tomoq, kekirdak, ko'z, burun shilliq pardalariga surtilganda kasallanadi.

Kasallik qo'zg'atuvchining manbai bo'lib, kasal va kasaldan tuzalgan virus tashuvchi parrandalar hisoblanadi. Virus tashuvchanlik parrandalarda 2 yilgacha, ular yo'talganda yoki og'iz-burundan chiqqan suyuqliklar bilan atrof muhitni virus bilan ifloslantiradi. Virusni uzatuvchi omillar bo'lib havo, ozuqa, suv, inventarlar va tovuqxonadagi barcha jihozlar xizmat qiladi. Virusning tabiatdagi rezervuari bo'lib, qon so'ruvchi hashorotlar, bo'g'inoyoqlilar hisoblanadi. Tabiiy sharoitda virus asosan havo orqali organizmga kiradi. Infeksion laringotraxeit (ILT) asosan ushbu kasallikka qarshi immuniteti bo'lmagan parrandalarda epizootiya holatda namoyon bo'ladi. Kasallik AQSH, Avstraliya, Kanada, Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa parrandachilik rivojlangan mamlakatlarda qayd qilinadi. Ushbu kasallikka doimiy nosog'lom parrandachilik xo'jaliklarda ko'pincha 25-35 kunlik jo'jalar va 7-8 oylikkacha tovuqlar chalinadi.

ILT yilning har qanday faslida uchrashi va enzootik kechishi mumkin. Bu kasallik nosog'lom xo'jaliklarda, yozda va kuz faslining boshlarida jo'jalar orasida, kuzda esa, yosh tovuqlar orasida kuzatiladi. Bunday xo'jaliklarda katta yoshdagi tovuqlar infeksiion laringotraxeit bilan kasallanmaydi. Kasallikning kelib chiqishida va tarqalishida organizmning rezistenligi va tashqi muhitning roli benihoya katta.

Parrandalarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarining buzilishi (namlik, sovuq, dim havo, antisanitariya, sifatsiz oziqlantirish, ayniqsa ozuqada vitaminlar etishmasligi) ular organizmining rezistenligini pasaytiradi va kasallikning kelib chiqishiga, tarqalishiga imkon yaratadi.

Tabiiy sharoitlarda infeksiion laringotraxeitga faqat uy parrandalari, xususan, barcha yoshdagi tovuqlar va ba'zan qirg'ovullar moyil bo'ladi, ammo laboratoriya sharoitida kurka, o'rdaklarni yuqtirish mumkin, lekin kasallik alomatlari bo'lmaydi.

Infeksiyaga 3 oylikdan 9 oylikkacha bo'lgan jo'jalar moyil bo'ladi. Bir oylik jo'jalar ILT bilan kasallanmaydi, virus tovuq embrionlarida o'sishiga qaramay, kunlik jo'jalar kasallikdan xoli bo'ladi.

Virusning asosiy yuqish yo'llari aerogen (havo-tomchi) va kontakt yo'llaridir. Infeksiya darvozasi sifatida nafas olish organlari xizmat qiladi. Virus kasal qushdan sog'lom qushga asosan infeksiyalangan havo orqali yuqadi. Xavfli parranda inidan havo massalari bilan virus 10 km gacha bo'lgan uzoq masofaga tarqaladi. Virusni so'yish mahsulotlari, par va pat, inkubatsiya chiqindilari, idish, to'shama, ozuqa bilan yuqtirish mumkin.

Patogenezi. Virus epiteliotrop, nafas olish a'zolari shilliq pardalari epiteliyalarida tez ko'payadi. Jarohatlangan epiteliyalar infeksiya darvozasi hisoblanadi Virus nafas olish yo'llari a'zolari shilliq pardalarining epitelial hujayralariga yopishadi va yallig'lanish jarayonini keltirib chiqaradi. Natijada epitelial hujayralar o'z vazifasini bajara olmaydi,

ishdan chiqadi, hiqildoq va kekirdak shilliq pardalari shishadi va u erlarda o'choqli qon quyilishlar kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar odatda virusning organizmga kirganidan 24-72 soat so'ng ro'y beradi. Keyinchalik virus qonga o'tadi va ichki a'zolarga tarqaladi.


CHuqur patologik o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan kazeozli tiqinlar faqat nafas yo'llarini toraytiribgina qolmay, ularni butunlay berkitib qo'yadi. Oqibatda kasal parrandalar bo'g'ilib o'ladi.

Klinik belgilari.

Infeksion laringotraxeitda inkubatsiya davri o'rtacha 4-10 kunni tashkil etadi. Infeksion laringotraxeitning o'tishi o'tkir, yarim o'tkir, surunkali bo'lishi mumkin. Kasallikning uch xili tafovut qilinadi: laringotraxeal, konyunktival va aralash. Oraliq atipik shakli ham mavjud. O'tkirosti kechishida ko'pchilik qushlarda kasallik sekinroq kechadi. Nafas olish qiyinlashishi, yo'tal va boshqa respirator alomatlar o'limdan oldin bir necha kun davom etishi mumkin. Kasallanish darajasi hali ham yuqori, ammo o'lim darajasi past, u kasallangan parrandalarning 10% dan 30% gacha qamrab olishi mumkin. Kasallikning bu xili butun davr mobaynida ustun turishi yoki o'ta o'tkir xurujning oxirida paydo bo'lishi mumkin. Kasallikning atipik xili klinik belgilari bilan o'tib boradi.

Patologoanatomik o'zgarishlar.

Laringotraxeal xilida asosiy o'zgarishlar hiqildoq va traxeyada topiladi. Bu organlarning bo'shlig'I ayrim qushlarda turli miqdorda kataral yoki kataral-gemorragik eksudat, qon laxtalari bilan to'lgan bo'ladi.



2. Infeksion laringotraxeitda traxeya shilliq pardasida qon quyilishlar.

Tashxis.

ILTga dastlabki diagnoz epizootologik, klinik va patologoanatomik ma'lumotlar asosida qo'yiladi. 25-35 kunliq jo'jalardan 7-8 oylikkacha tovuqlarning kasallanishi, kasallikning epizootiya shaklda kechishi, tez tarqalishi, nafas olishning buzilishi, ya'ni

yoʻtal, boʻgʻilish, tomoq va kekirdak shilliq pardalarining gemorragik va kataral yalligʻlanishi hamda oʻpka, bronxlar va boshqa ichki aʻzolarida deyarli oʻzgarish boʻlmashligi bu kasallikka diagnoz qoʻyishda katta ahamiyat kasb etadi.

Laboratoriyaviy usullar bilan qoʻyilgan diagnoz yakuniy hisoblanadi. Bunda patologik material bakteriologik usulda tekshirilib, bakterial kasalliklar istisno qilinadi. Soʻngra ushbu materialdan 1:5 yoki 1:8 nisbatda suspenziya tayyorlanib, 30-60 kunlik joʻjalar zararlantiriladi. Agar materialda ILT virusi boʻlsa, kekirdakka yuborilgan joʻjalarda 3-5 kundan soʻng kasallik belgilari paydo boʻladi. Kloakasi zararlantirilgan joʻjalarda 3-5- kunlari kloaka shilliq pardasida qizarish, shish va serozli shilliq suyuqlik kuzatiladi. Zararlantirilgan tovuq embrioni xorioallantoisida xarakterli oq-kulrang tugunchalar paydo boʻladi.

Hozirgi vaqtda tovuqlarning infeksiyon laringotraxeit kasalligiga diagnoz qoʻyish uchun neytrallash, GATR, IDR reaksiyalari qoʻllaniladi.

Kasallikning oʻtkir kechishida epizootologik maʼlumotlar va simptomlar infeksiyon laringotraxeit (ILT) uchun xosdir. Biroq, ILT ning surunkali kechishini nafas olish aʻzolarining boshqa kasalliklaridan ajratib boʻlmaydi.

Tashxisni tasdiqlash uchun virusni ajratish kerak. Tadqiqot materiali sifatida yangi oʻlik, klinik jihatdan kasallangan parranda (4-5 bosh), traxeya ekssudati, shuningdek, hiqildoq va traxeyaning zararlangan shilliq qavatining qirindilari olingan.

Ajratma tashxis. Ushbu kasallikni infeksiyon bronxit, gipovitaminoz A, respirator mikoplazmoz va chechakdan farqlash kerak. Chechak ILT dan terining jarohatlanishi bilan farq qiladi. Infeksiyon bronxit kasalligi tabiiy sharoitda 1 oylik boʻlgan joʻjalarda uchraydi va oʻpka hamda bronxlarning jarohatlanishi bilan kechadi. Barcha hollarda laboratoriyaviy tekshirishlar yakuniy diagnoz qoʻyishga asos boʻladi.

Davolash. Maxsus davolash vositasi yoʻq, biroq sekundar infeksiyalarga qarshi keng doirada taʼsir etuvchi antibiotiklar va yodli preparatlardan foydalansa boʻladi. Parrandalar ishtirokida havo muhitini aërozolli dezinfeksiyalash uchun Profil-2000 qoʻllaniladi.

Spetsifik profilaktika. Profilaktika uchun tirik embryonal vaksinalar, yaʼni tovuq embrionlarida oʻstirilgan virus va kultural hujayralar kulturasida oʻstirilgan vaksinalar qoʻllaniladi.

Parrandachilik xoʻjaliklarida:

- ILTga qarshi "VNIIBP" shtammining quruq virus vaksinasi;
- ILTga qarshi embrion virus vaksinasi;
- parrandalarning infeksiyon laringotraxeitiga qarshi "VNIVIP" shtammining liposomal quruq vaksinasi;
- Nyukasl kasalligi (NB) va parrandalarning infeksiyon laringotraxeitiga (ILT) qarshi kombinatsiyalangan quruq vakcina;

- SNIIPP shtammining "NT" klonidan olingan virus vaktsinasi. Virus vaktsinalari aerazol, kloak, okulyar, enteral yo'llar bilan qo'llaniladi.

Immunitet 7-10 kunlarda paydo bo'ladi va qushdan xo'jalikda foydalanish davomida saqlanib qoladi. Emlash faqat nosog'lom xo'jaliklarda o'tkaziladi, chunki ayrim hollarda 8% gacha jo'jalar 8-15 kunida ILT bilan kasallanadi. Shuning uchun emlangan jo'jalar alohida boqiladi.

Profilaktika va kurash choralari.

ILT tashxisi qo'yilganda xo'jalik nosog'lom deb hisoblanadi. Unda quyidagi cheklovlar joriy etiladi: xo'jalikdan parranda, ozuqa, asbob-uskuna va jihozlarni olib chiqishga, o'tkir epidemiya davrida parrandalarni xo'jalik ichida olib yurishga ruxsat berilmaydi. Tovuqxonatozalanib dezinfeksiya qilinadi. Dezinfeksiya uchun 2-3% li formalin, 3% li 65-70⁰ S issiq o'yuvchi natriy, 2-3% li faol xlorli ohak ishlatiladi. Qo'zg'atuvchisi va uning chidamliligi. DNK saqlovchi virus – (Herpes virus galli-1) Herpesviridae oilasiga mansub. Virion o'lchami 45-110 nm. Virion asosan 3 ta komponentdan: nukleoid, kapsomerli kapsid va qobiqdan iborat. Virus 7-9 kunlik tovuq embrionining xorioallantois qobig'ida va birlamchi va qayta-qayta cheksiz o'suvchi hujayralar kulturasida SPT ko'rsatib ko'payadi. Virus 3-4 kunda sitopatik ta'sir ko'rsatadi.

Virusning tashqi muhit ta'sirlariga chidamliligi uncha yuqori emas. O'yuvchi natriy, krezol, xlorli ohak, formalin va kreolin aralashmasining (3:1) 1m³ xona havosidagi 15 ml miqdori virusni tez faolsizlantiradi.

Nazorat savollari:

1. Klinik belgilarni va patologoanatomik o'zgarishlarni kasallikning har xil kechishida bayon qiling.
2. Kasallikning laringotraxeal va kon'yunktival shakllarida aerazol usulida qaysi dezinfektandan foydalaniladi, parrandaxonani dezinfeksiya qilishdachi?
3. Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai va uni uzatish omillarini tavsiflang.
4. Qanday maxsus oldini olish o'tkaziladi, guruhli emlashda qaysi vaktsinalar, qanday ishlatiladi?
5. Kasallikning kon'yunktival shaklini va unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini izohlang.
6. Jo'jalarda fabritsieva xaltachasi nima vazifani bajaradi?
7. Kasallangan jo'jada qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
8. Kasallik patogenezini tushuntiring.
9. Ushbu kasallikni mikoplazmozdan farqlash prinsipini tushuntiring.
10. Kasallikni oldini olish, qarshi kurash chora-tadbirlarini izohlang